

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2
MAXSUS SON

2026

MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 87 sahifa,
mart, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLİYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI	8
<i>Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich</i>	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI.....	12
<i>Go'zal Samadova Solik qizi, Husan Normurodov</i>	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	17
<i>Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich, Aytmuratova Ulbike</i>	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	21
<i>Abduxalilov S.A., Normurodov X.E.</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	27
<i>Абдумажидов Шохжахон Шухратович, Захидов Шухрат Шокирович, Насиров Дилшод Фархадович</i>	
СТЕЙБЛКОИНЫ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА	31
<i>Бахтиярова А.Б., Алиева С.С.</i>	
TASHKILOT AXBOROT TIZIMLARINI KVANT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHDA POST-KVANT KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNI QO'LLASH.....	38
<i>G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi, Tursunova Sadoqat Abdusalom qizi</i>	
CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD	44
<i>Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahmatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek</i>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI	50
<i>Sarsengalieva Albina Askar Qizi, Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich</i>	
STATISTIK TAHLILDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH	56
<i>Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi, Daminova Barno Esanovna</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTINING YASHIL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	62
<i>Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi, Normurodov X.E.</i>	
O'ZBEKISTON TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	66
<i>Abdurazakova Farangis Dilshod qizi, Normurodov X.E.</i>	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	71
<i>Насиров Дилшод Фархадович, Абилова Мухлиса, Насимова Рухангиз</i>	
THE ROLE OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN	75
<i>Amanova Durdona Zoir qizi, Shodiboyeva Dilzoda Farhodjon qizi</i>	
INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	80
<i>Yarboeva Farida Ulug'bekovna, Yoqubova Zilola Tura qizi</i>	



INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Yarboyeva Farida Ulug'bekovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Yoqubova Zilola Tura qizi

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti,
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotda milliy qonunchilik, Prezident farmonlari hamda raqamli transformatsiya strategiyalari asosida institutsional samaradorlikni oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kuchli institutlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: institutsional islohotlar, iqtisodiy o'sish, qonunchilik, Prezident farmonlari, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article analyzes the impact of ongoing institutional reforms in Uzbekistan on economic growth. The study examines ways to enhance institutional effectiveness based on national legislation, Presidential decrees, and digital transformation strategies. The results indicate that strong institutions are a key factor in ensuring economic stability and attracting investment.

Keywords: institutional reforms, economic growth, legislation, Presidential decrees, digital transformation.

Аннотация: В статье анализируется влияние проводимых в Узбекистане институциональных реформ на экономический рост. В исследовании рассматриваются пути повышения институциональной эффективности на основе национального законодательства, указов Президента и стратегий цифровой трансформации. Результаты показывают, что сильные институты являются ключевым фактором обеспечения экономической стабильности и привлечения инвестиций.

Ключевые слова: институциональные реформы, экономический рост, законодательство, указы Президента, цифровая трансформация.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash faqatgina ishlab chiqarish omillari — kapital, mehnat va texnologiyalar bilan cheklanmaydi. So'nggi yillarda iqtisodiy nazariya va amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Institutlar jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va



ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar, normalar va tashkilotlar majmuasi sifatida iqtisodiy faoliyat samaradorligini belgilaydi.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, samarali institutlar iqtisodiy agentlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solib, noaniqlikni kamaytiradi hamda tranzaksiya xarajatlarini qisqartiradi. Natijada iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi va iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoit yaratiladi. Aksincha, zaif institutlar korrupsiya, byurokratik to'siqlar va huquqiy noaniqliklarni keltirib chiqarib, iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Institutsional islohotlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy nazariyada chuqur o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masalaga oid ilmiy qarashlar yangi institutsional iqtisodiyot vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida institutlar sifatiga alohida urg'u beriladi.

Xususan, xorijiy olimlar D. Acemoglu, S. Johnson va J. Robinson tadqiqotlarida institutlar iqtisodiy o'sishning fundamental omili sifatida talqin etiladi. Ularning fikricha, iqtisodiy institutlar iqtisodiy agentlarning rag'batlari va imkoniyatlarini belgilaydi hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantiradi. Tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan "inklyuziv" va "ekstraktiv" institutlar konsepsiyasi shuni ko'rsatadiki, mulk huquqi himoyalangan va qonun ustuvorligi ta'minlangan davlatlarda iqtisodiy o'sish barqaror bo'ladi. Aksincha, resurslarni tor guruhlar manfaatlariga yo'naltiruvchi institutlar iqtisodiy turg'unlikka olib keladi [4].

Yana bir mashhur iqtisodchi D. Rodrik institutlarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini alohida ta'kidlab, iqtisodiy o'sish nafaqat bozor mexanizmlari, balki samarali davlat institutlari orqali ham ta'minlanishini asoslab beradi. Uning fikricha, yuqori sifatli institutlar — huquqiy tizim, samarali byurokatiya va shaffof boshqaruv — investitsiya muhitini yaxshilaydi hamda iqtisodiy o'sish uchun zarur sharoit yaratadi [5].

MDH mamlakatlari olimlari ham institutsional omillarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rini keng o'rganishgan. Masalan, rossiyalik iqtisodchi S. Guriyev o'z tadqiqotlarida postsovet davlatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari ko'p jihatdan institutsional muhit sifati, xususan, korrupsiya darajasi va davlat boshqaruvi samaradorligiga bog'liq ekanligini asoslaydi. Uning fikricha, zaif institutlar kapital oqimining kamayishiga va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi [6].

Shuningdek, Y. Polterovich tomonidan ishlab chiqilgan "institutsional tuzoqlar" nazariyasi MDH mamlakatlari uchun muhim ahamiyatga ega [7]. Unga ko'ra, samarasiz institutlar uzoq muddat davomida saqlanib qolishi mumkin va bu holat iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi. Institutsional islohotlar esa ushbu "tuzoq"lardan chiqishning asosiy vositasi hisoblanadi.

O'zbekistonlik olimlar ham mazkur yo'nalishda muhim ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, A. Vahobov iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda davlat institutlari samaradorligi va iqtisodiy siyosatning izchilligini asosiy omil sifatida ko'rsatadi [8]. Uning fikricha, iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati bevosita institutsional muhitning rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Yana bir o'zbek iqtisodchisi S. G'ulomov ilmiy ishlarida innovatsion iqtisodiyot sharoitida institutsional islohotlarning ahamiyatini ta'kidlab, raqamli iqtisodiyotga o'tishda samarali institutlar hal qiluvchi rol o'ynashini qayd etadi [9]. Unga ko'ra, zamonaviy iqtisodiy o'sish nafaqat texnologiyalar bilan, balki ularni qo'llab-quvvatlovchi institutsional tizim bilan ham belgilanadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, institutsional islohotlar iqtisodiy o'sishning muhim sharti hisoblanadi. Turli mamlakatlar tajribasi va nazariy yondashuvlar asosida aytish mumkinki, samarali institutlar mavjud bo'lgan sharoitda iqtisodiy o'sish barqaror va uzoq muddatli xususiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda institutsional islohotlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg'un holda qo'llanildi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- Tahlil va sintez usuli — institutsional islohotlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan umumlashtirish va tizimlashtirish uchun;
- Taqqoslash usuli (komparativ tahlil) — O'zbekistonning institutsional rivojlanish ko'rsatkichlarini xorijiy davlatlar, xususan, Singapur tajribasi bilan solishtirish orqali ularning o'ziga xos jihatlari aniqlash uchun;
- Statistik tahlil usuli — iqtisodiy erkinlik indeksi, reyting ko'rsatkichlari va boshqa makroiqtisodiy ma'lumotlar asosida tahlil olib borish uchun;
- Dinamik tahlil usuli — vaqt davomida iqtisodiy erkinlik ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalarini baholash uchun;

• Grafik tahlil usuli — diagramma va rasmlar asosida iqtisodiy ko'rsatkichlarning vizual tahlilini amalga oshirish uchun.

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Prezident farmonlari, xususan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026-yillar" hamda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi, shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar, jumladan, iqtisodiy erkinlik indeksi tashkil etadi.

Mazkur metodologik yondashuv institutsional islohotlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini har tomonlama baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional islohotlar, odatda, mulk huquqini himoya qilish, sud-huquq tizimini mustahkamlash, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda raqobat muhitini rivojlantirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Aynan ushbu islohotlar iqtisodiy tizimning barqaror ishlashini ta'minlab, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mulk huquqining ishonchli himoyasi iqtisodiy o'sishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Investorlar o'z mablag'larini kiritishda ularning huquqlari himoyalanganligiga ishonch hosil qilishi lozim. Agar mulk huquqi kafolatlanmagan bo'lsa, investorlar uzoq muddatli loyihalarga sarmoya kiritishdan tiyiladi. Bu esa iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, institutsional islohotlar doirasida huquqiy tizimni takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Korrupsiya darajasining yuqoriligi ham iqtisodiy o'sish uchun jiddiy to'siq hisoblanadi. Korrupsiya resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga, davlat xarajatlarning samarasiz sarflanishiga va biznes muhitining yomonlashishiga olib keladi. Institutsional islohotlar orqali shaffoflikni oshirish va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish korrupsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikni oshirib, iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi.

Davlat boshqaruvi sifati ham institutsional rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Samarali davlat boshqaruvi resurslarni to'g'ri taqsimlash, iqtisodiy siyosatni izchil amalga oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali davlat xizmatlarini soddalashtirish va tezlashtirish ham institutsional islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir.


O'zbekistonda institutsional islohotlar izchil va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda hamda mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026-yillar" doirasida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilangan [2]. Mazkur strategiya institutsional islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlab berib, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri mamlakatda institutsional rivojlanishning mustahkam huquqiy asosini yaratdi [1]. Unda mulk daxlsizligi, tadbirkorlik erkinligi, qonun ustuvorligi va inson huquqlarining kafolatlanishi alohida belgilab qo'yilgan. Mazkur normalar iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun ishonchli va barqaror muhit yaratib, investitsiyalarni jalb etish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayonlari ham institutsional islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish hamda iqtisodiyotning turli sohalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ko'zda tutilgan [3]. Ushbu chora-tadbirlar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyani kamaytirish orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Institutsional islohotlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini iqtisodiy erkinlik darajasi orqali ham baholash mumkin. Chunki institutsional omillarni takomillashtirish iqtisodiy erkinlik darajasining oshishiga xizmat qiladi. Iqtisodiy erkinlik esa har bir insonning o'z mehnati va mulkini erkin tasarruf etish huquqini anglatadi.

O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik reytingi 60,3 ballni tashkil etib, bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakat 2026-yilgi Iqtisodiy erkinlik indeksida 86-o'rinni egallaydi. Mazkur reyting o'tgan yilga nisbatan 2,3 ballga oshgan bo'lib, O'zbekiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasining 39 mamlakati orasida 18-o'rinni egallagan. Mamlakatning iqtisodiy erkinlik darajasi dunyo va mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqori bo'lib, 2026-yilgi indeksga ko'ra "o'rtacha erkin" iqtisodiyot sifatida baholanadi [10] (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik reytingi (2026-yil)

1-rasmda O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik reytingi aks ettirilgan. Mazkur ko'rsatkich The Heritage Foundation tomonidan chop etiladigan yillik hisobot — "Iqtisodiy erkinlik indeksi" asosida baholangan. Tahlil natijalariga ko'ra, mulk huquqlari va sud tizimi samaradorligi bo'yicha reytinglar jahon o'rtacha darajasidan past baholangan.

Shu bilan birga, soliq yuklamasi yalpi ichki mahsulotning 11,5 foizini tashkil etadi. So'nggi uch yillik davrda davlat xarajatlari va byudjet balansi o'rtacha ko'rsatkichlari mos ravishda YalMning 29,6 foizi va -3,4 foizini tashkil etgan. Davlat qarzi darajasi esa YalMning 32,7 foiziga teng.

Biroq mamlakatning biznes erkinligi ko'rsatkichi jahon o'rtacha darajasidan yuqori baholangan bo'lib, bu tadbirkorlik faoliyati uchun nisbatan qulay sharoitlar yaratilganligini anglatadi (2-rasm).




2-rasm. 1998–2026-yillarda O'zbekistonning umumiy ball ko'rsatkichining o'zgarish dinamikasi

2-rasmda O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha umumiy ball ko'rsatkichining yillar kesimidagi o'zgarish dinamikasi aks ettirilgan. 2026-yil natijalariga ko'ra, mamlakat o'z o'rnini 14 pog'onaga yaxshilab, 184 ta davlat orasida 86-o'rinni egalladi. 2025-yilga nisbatan iqtisodiy erkinlik darajasi 2,3 punktga oshib, 60,3 ko'rsatkichga yetdi (maksimal qiymat — 100 ball). Reytingda O'zbekistonning eng yaqin qo'shnilari sifatida San-Tome va Prinsipi (85-o'rin) hamda Namibiya (87-o'rin) qayd etilgan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy yuksalishga erishgan ko'plab davlatlar, avvalo, institutsional islohotlarga alohida e'tibor qaratgan. Masalan, Janubiy Koreya va Singapur samarali boshqaruv tizimi hamda korrupsiyaga qarshi qat'iy siyosati orqali qisqa muddatda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishgan. Shuningdek, Estoniya kabi davlatlar raqamli institutlarni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirgan.

Singapurning iqtisodiy erkinlik reytingi 84,4 ballni tashkil etib, bu ko'rsatkich mamlakatni 2026-yilgi Iqtisodiy erkinlik indeksida yetakchi o'ringa olib chiqqan. Reyting o'tgan yilga nisbatan 0,3 punktga oshgan bo'lib, Singapur Osiyo-Tinch okeani mintaqasining 39 ta mamlakati orasida 1-o'rinni egallaydi. Mamlakatning

iqtisodiy erkinlik darajasi dunyo va mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqori bo'lib, 2026-yilgi indeksga ko'ra "erkin" iqtisodiyot sifatida baholanadi [11] (3-rasm).



3-rasm. Singapurning iqtisodiy erkinlik reytingi (2026-yil)

Mulk huquqlarini kuchli himoya qilish va korrupsiyaga qarshi qonunlarning samarali ijrosi Singapurning iqtisodiy erkinligi asoslarini mustahkamlaydi. Soliq stavkalari raqobatbardosh bo'lib, tartibga soluvchi muhit iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Global savdoga ochiqlik unumdorlikni oshiradi hamda yanada dinamik va raqobatbardosh moliyaviy sektorning rivojlanishiga xizmat qiladi. Biznesni boshlash jarayoni soddalashtirilgan. Qonuniy minimal ish haqi mavjud emas, biroq Milliy ish haqi kengashi ish haqi darajalarini tartibga soladi. Murakkab tashqi iqtisodiy sharoitga qaramay, inflyatsiya darajasi nazorat ostida saqlanmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda institutsional islohotlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Xususan, sud-huquq tizimini isloh qilish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash va soliq tizimini soddalashtirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilashga hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, institutsional rivojlanishni yanada chuqurlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Xususan, korrupsiyani qisqartirish, sud tizimining mustaqilligini kuchaytirish va davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish bo'yicha izchil islohotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, institutsional islohotlar iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib, ular iqtisodiy tizimning barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Samarali institutlar iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi, investitsiyalarni jalb etadi hamda resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, institutsional muhitning rivojlanganligi iqtisodiy agentlar o'rtasida ishonchni mustahkamlab, bozor mexanizmlarining to'liq ishlashiga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda davlatlar uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, xususan, huquqiy tizimni takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, har bir davlat o'zining uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasida institutsional islohotlarga ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). — Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". — Toshkent, 2022-yil 28-yanvar, PF–60. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. — Toshkent, 2020-yil 5-oktabr, PF–6079. <https://lex.uz/docs/-5030957>
4. Daron Acemoglu, Simon Johnson, James A. Robinson. *Institutions as the Fundamental Cause of Long-Run Growth* // NBER Working Paper. — Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2004. — No. 10481.
5. Dani Rodrik. *Institutions for High-Quality Growth: What They Are and How to Acquire Them* // Studies in Comparative International Development. — 2000. — Vol. 35, No. 3. — P. 3–31.
6. Polterovich V.M. *Institutsional tuzoqlar va iqtisodiy islohotlar*. — Moskva: Rossiya iqtisodiy maktabi, 2001. — 42 b.
7. Guriev S.M. *O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda iqtisodiy islohotlar*. — Moskva: Oliy iqtisodiyot maktabi, 2010. — 256 b.
8. Vahobov A.V. *Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional asoslari*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2015. — 320 b.



9. G'ulomov S.S. *Raqamli iqtisodiyot va uning institutsional rivojlanishi*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 256 b.
10. The Heritage Foundation. Iqtisodiy erkinlik indeksi (rasmiy sayt): <https://economicfreedom.heritage.org/pages/>
11. The Heritage Foundation. Singapore country profile: <https://economicfreedom.heritage.org/pages/country-pages/singapore>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100